



MAHALLA INSTITUTINING BOLA RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika
Instituti 1-Bosqich Talabalari
Abdurahmonova Ra'no Murod Qizi
Meliyeva Shahnoza Erkin Qizi
Ilmiy rahbar
Turdiyeva Izzatoy

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillik maqomini qo'lga kiritishi munosabati bilan butun O'zbekiston miqyosida jamiyatda butunlay yangi siyosiy institutlarini yaratish doirasida o'z hududida shu singari milliy hususiyatga ega mahalliy institutlarni yaratishga kirishganligi yoritilib berilgan. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish instituti huquqiy davlat alomatlaridan biri bo'lib, fuqarolarning davlat va mahalliy hamjamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishlaridagi huquqlarini ta'minlashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi. Mazkur institut fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Annotation: In connection with the acquisition of the status of independence of the Republic of Uzbekistan, it is explained in the article that within the framework of the creation of completely new political institutions in the society on the scale of Uzbekistan, it began to create local institutions with similar national features in its territory. The institution of local self-government is one of the signs of a legal state and serves as an important guarantee of ensuring the rights of citizens to participate in the management of state and local community affairs. This institute plays an important role in the formation process of civil society.

Аннотация: В статье говорится, что в связи с обретением Республикой Узбекистан независимости приступил к созданию на своей территории местных институтов схожего национального характера в рамках создания совершенно новых политических институтов в обществе. Институт местного самоуправления является одним из признаков верховенства закона и служит важной гарантией прав граждан на участие в управлении делами государства и местного сообщества. Этот институт играет важную роль в формировании гражданского общества.

Kalit So'zlar: huquqiy davlat, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish institutlari, davlat hokimiyati, oila, mahalliy boshqaruv, qonuniylik, inson huquqlari, qonuniy manfaatlar ustuvorligi, demokratiya, ijtimoiy adolat, mahalliy muammolar.

Mahalla instituti bir necha asrlik qadimiy tarixga ega bo'lsada, uning huquqiy asoslari yaratilgan va jamiyat boshqaruvida o'ziga xos vakolatlarga ega bo'lgan davri - mamlakatimizning mustaqillikka erishgan davri hisoblanadi. Chunki, mustaqil O'zbekistonning bosh qomusi - Konstitutsiyasining 105-moddasiga mahalla instituti haqida qoidalar kiritilib, uning vakolat muddati belgilab berildi. Konstitutsiyada belgilab



berilgan ushbu qoidalar asosida 1993-yil 2-sentyarbdada “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartiblari, vakolat doirasi hamda faoliyati sohasidagi munosabatlar tartibga solindi. Bu jarayonda bevosita fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga ham ko‘plab vakolatlar o‘tkazib borildi. Bu esa amaldagi Qonunni yanada takomillashtirish, fuqarolar yig‘inlariga berilgan vakolatlarni amalga oshirish mexanizmlarini qonun bilan tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi. Shu bois “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun 1999-yil 14-aprelda yangi tahrirda qabul qilindi. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylash jarayoni ham fuqarolar yig‘ini faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri hisoblanib, ushbu jarayonni yanada tartibli o‘tkazish, uning aniq me‘yorlarini joriy qilish maqsadida 2004-yil 29-aprelda “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”lgi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovining asosiy prinsiplari, saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartib qoidalari hamda nomzodlarga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatib o‘tildi. Xususan, Konsepsiyaning 5-yo‘nalishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta‘minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilib, bu vazifani hal qilishda uchta asosiy masala ko‘rsatib berildi. Bular:

I. Aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish.

II. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish.

III. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish.

Konsepsiya ijrosi yuzasidan 2013-yil 22-aprelda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi hamda “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”2gi Qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. Yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunda fuqarolar yig‘inlariga tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi hamda kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarini tomonidan kommunal xizmatlar ko‘rsatish sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha vakolatlar berish nazarda tutildi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Qonunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi vazifalari yanada chuqurlashtirilib, bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj kam ta‘minlangan oilalar, yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniqlash, fuqarolarning bandligiga ko‘maklashishi haqidagi normalar kiritildi. Mazkur Qonunning 18-moddasida fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha 8 ta komissiyalar tuzilishi belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig‘ini tomonidan fuqarolar



yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin. Ushbu komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish orqali mahallaning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida "Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 7-oktyabrdagi 274-sonli qarori bilan yuqoridagi komissiyalarning namunaviy Nizomlari tasdiqlab berildi." 3Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashda uning o'rni va ahamiyati beqiyos. Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xususan, milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105- moddasida mustahkamlab qo'yildi: «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga (2019 yildan boshlab 3 yilga) raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlari saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi». Yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o'z aksini topdi. Birgina so'nggi besh yilda yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi. Shuningdek, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari hamda —Mahalla ma'rifiy teleradiokanali tashkil etildi. Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo'lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Amalga oshirilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o'xshashi bo'lmagan tuzilmaga aylandi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Konstitusiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahrirda) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odat va an'alaridan kelib chiqqan holda milliy mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatdir». Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis Tokvilning talqinicha, fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi hamda o'zini o'zi boshqarish



organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Mahalla sharqona an'analar, urf-odatlar va marosimlarni jamoada amalga oshirib, avlod-dan-avlodga etkazib kelmoqda. Mahalla faollari an'anaviy, oilaviy to'ylar, bayramlar, motam marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lishadi. Ularni dabdabasiz, isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz, ixcham qilib o'tkazish, mahalla oqsoqoli va maxsus mutasaddi komissiyalarga bog'liq. Mahallada o'tayottan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining kattayu kichigi birday mas'uldir. Bunday tadbirlarda kattayu kichikka, boyu kambag'alga, mansabdoru oddiy fuqaroga bir xil hurmat va ehtirom ko'rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a'zosi yagona, teng huquqli va mustahkam bitta oila hisoblanadi. Mahallada kelajak avlodimiz tarbiya topadi. Bu erda o'sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'uldir. SHuning uchun ham "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona", "Bir bola tarbiyasi uchun etti mahalla ota-ona" kabi naqlar bejiz paydo bo'lmagan. Yoshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat-markazida bo'ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi – barkamol insonni tarbiyalab etishtirishning negizidir. Xulq-odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro'sidir, noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog'idir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar etishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g'ururlanadilar. Mahalla tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda. Mahalla, umuman, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholinini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishidadir. Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlarda munitsipal tuzilmaning aholisi – "hududiy ommaviy jamoa", "hududiy jamoa", "mahalliy hamjamiyat" tushunchalari bilan belgilanadi. V.E. Chirkinning ta'rificha, hududiy ommaviy jamoa – aholini hududiy mansublik belgisi bo'yicha tashkil etishning maxsus shakli va odamlarning fuqaroligi va yoshidan qat'i nazar maxsus uyushmasidir. Hududiy ommaviy jamoa sifatida u davlatni tashkil etgan jamiyatlar, ularning ichida tuzilishi mumkin bo'lgan va tashkil etilayotgan boshqa hududiy ommaviy jamoalar: federatsiya sub'ektlari, siyosiy avtonomiyalar, munitsipal tuzilmalarning aholisi (xalqi)ni ajratadi. Hududiy jamoa a'zolarining o'zaro aloqalari murakkab kommunikatsiyalar tizimidan iborat. Nikolas Lumanning fikricha, kommunikatsiya butunlay ongga bog'liq bo'lib, ya'ni kommunikatsiyaning o'zi emas, balki ongning axborotni qabul qilish funksiyasini bajaradi. Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Demokratik jamiyat shakllanishida mahalla instituti alohida o'rin tutadi. «Mahalla» arabcha



so'zdan kelib chiqib, «shahar ichidagi shahar» ma'nosini anglatadi. Tarixchi olim Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruv uslubi ekanligini yozgan edi. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. O'rta asrlarda Xiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik «shaharcha» mahallalardan tashkil topgan ekan. Demak, qadim zamonlardayoq o'zini o'zi boshqarish organlarining ilk kurtaklari namoyon bo'lgan. Bunday jamoatchilik nazorati juda qadim zamonlardan buyon mavjud. Masalan, ibtidoiy jamoada shaxs xulqini jamoa nazorat qilgan. Agar shaxs xulq-atvorida jamoa tomonidan qabul qilingan me'yorlardan og'ish bo'lsa, jamoa a'zolari turli sanksiyalar yordamida uning xulqini tegishli tomonga o'zgartirgan. O'zbekistonda qadimdan o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan mahalla nazoratchilik funksiyalarini ham bajargan. Bunday funktsiyani mahalla jamoasi yuqoridan tushirilgan farmonlar, buyruqlar va boshqa huquqiy me'yorlarga munosabat bildirish shaklida ifodalagan. Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo'lsa ham, uni ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan bo'lgan T.Tard olib kirdi. Uning talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me'yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Park tadqiqotlarida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga mos keltirish maqsadida o'tkaziladigan ta'sirni anglatadi. Amerikalik sotsiolog T.Parsons tavsifida jamoatchilik nazorati sanksiyalar yordamida deviant xulq-atvorga ta'sir o'tkazish orqali uni me'yoriy holatga keltiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Sharqda bu jarayon bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan mahallalar ko'rinishida rivojlangan bo'lsa, G'arb mamlakatlarida kishilarning o'z manfaat va qiziqishlarida jamiyatdagi munosabatlarda ifodalash hamda himoya qilish maqsadida har xil uyushmalar, partiyalar, jamiyatlar, harakatlar va boshqa tuzilmalar sifatida paydo bo'lishiga asos solindi. Sobiq SSSR davrida mahalla institutining mazmuni va vazifalari butunlay izdan chiqqan edi. Bu davrda mahallalar o'zining huquqiy maqomini yo'qotdilar. Bu davrda qadimdan ma'naviyat, ta'lim va tarbiya masalalarini hal etib kelgan mahallalarning o'rni deyarli yo'qqa chiqarildi. Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutga aylantirishiga doir jiddiy isloholar amalga oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina, o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitusiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar. Jumladan, mustaqillik davrida mamlakatda 10 mingga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mustaqillikning ilk davridan boshlab Birinchi Prezident I.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb bildi va ularni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirdi. Mustaqillik davrida mahallalarning tashkiliy ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo «mahalla» atamasi tarixda birinchi marta Konstitusiyaga kiritildi. Unga aholining o'zini o'zi boshqaruvining noyob shakli sifatidagi 130 konstitusiyaviy huquqiy maqom berildi. "1992-yilda O'zbekiston prezidentining



—Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1992-yildagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llabquvvatlash haqida»gi⁴, 1999-yildagi «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi farmonlar, shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar, qonunlar va me'yoriy hujjatlar e'lon qilinganligi buning isbotidir. «Birinchi Prezident I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XI sessiyasidagi ma'ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati takomillashtirish xususida quyidagi fikrni bildirdi: «Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li – markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tizimlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir». Hozirgi davrda jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib mahalla fuqarolar yig'inlariga boshqaruvning turli yo'nalishlariga yetakchilik qilish vakolatlari berildi.»⁵ Mahallalar o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etadilar: qariyalar, faxriylar, yetimlar, baynalmilal-harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlarini himoya qiladi; mahalla faollarining mazkur faoliyatda ishtirok etishiga boshchilik qiladi; insonni ma'naviy yuksalishi va tashabbuslarini namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi; fuqarolar moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi. Mahalla fuqarolar yig'ini ijtimoiy ta'minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga beg'araz moddiy yordam ajratishning barcha tashkiliy jihatlarini o'zi mustaqil ravishda bajaradi. Shu bilan birga, mahallalar o'z hududlarida ekologik muammolarni yechish va aholi moddiy ahvolini yaxshilash, hashar yo'li bilan ko'kalamzorlashtirish, tozalash ishlariga jalb qilish, mahalliy aholi o'rtasida atrof-muhitni asrash yuzasidan tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borishga ham mas'uldir. Albatta, bu kabi faoliyatlar fuqarolar faolligini oshirish vositasida amalga oshirilmoqda. Shuningdek ko'plab qonunlar loyihalari, Konstitusiyaga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgarishlarni o'zida ifodalagan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish avvalo mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinmoqda hamda qo'llab-quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda, mahallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishning muhim vositasi ekanligini hayotning o'zi isbotlab berdi. Mamlakat siyosiy hayotida fuqarolarning siyosiy qaror qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlab beruvchi asosiy bo'g'in, bu – mahalla fuqarolar yig'inlaridadir. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan birdan bir boshqaruv tizimi ham mahalla fuqarolar yig'inlaridir. Respublika «Mahalla» xayriya jamoat fondi, uning viloyat, shahar, tuman bo'limlari bilan hamkorlikda har yili «Eng yaxshi mahalla», «Eng ibratli oqsoqol», «Mahalla jonkuyari», «Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli» shiori ostida muttasil ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinadi. Ko'rik-tanlovlar g'oliblari har yili obro'li komissiyalar tomonidan maxsus nishonlar, qimmatli esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. Mazkur tadbirlar mahallalarni obodonlashtirish, ozoda saqlash, ayniqsa yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, «Mahalla» jamg'armasi va uning mahalliy



tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi va bormoqda. Huquqiy demokratik davlatda saylov qonunlari va uni o'tkazish muhim o'rinni egayllaydi.

XULOSA

O'zbekistondagi mahalla tufayli asrlar davomida aholining ijtimoiy va iqtisodiy xatti-harakatlarini rag'batlantirish, ijtimoiy qadriyatlarni hurmat qilish, jamiyat oldidagi majburiyatlar va javobgarlikning so'zsiz bajarilishini kafolatlovchi munosabatlar axloq qoidalarining maxsus tamoyillari shakllanib kelmoqda va saqlanib kelinmoqda. Bularning barchasi, mahallalarda kuzatilayotgan fuqarolar o'rtasidagi yuqori darajadagi ishonch bilan birga, fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur shartdir. Bugungi kunda demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning noyob instituti sifatida mahallaning tajribasidan demokratik yo'l bilan o'tayotgan boshqa mamlakatlarda samarali foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Ми все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Вступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса / Ш.М. Мирзиёев. – Ташкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 с.

2. Организация местного самоуправления. - М.: Инфра-пресс, 1988. - С. 38. 3. Каримов И.А. Узбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Тошкент. «Узбекистон», 1996.- 175-б.

4. Шадманова С., Ахмедов Т. Маҳалла комиссиялари фаолиятида трансформацион жараёнлар // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – №3. – 2014. – Б. 62.

5. Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи. – Т., 2003. – Б. 28-29.

6. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 292.

7. Маҳалла: фуқаролар ўзини ўзи бошқаришнинг ҳуқуқий асослари (маҳаллалар фаолиятини тартибга солишчи қонун ҳужжатлари тўплами). - Т.: «Маҳалла» хайрия жамғармаси, 2003. - 109-110-бб.

8. [хтпс://lex.uz/doss/3106223](http://lex.uz/doss/3106223).